

22-Mavzu. Matnli masalalar

1. Detal 1:5 masshtabdagi chizmada 2 cm uzunlikka ega. Shu detal 1:4 masshtabdagi chizmada qancha uzunlikka ega bo‘ladi ?
A) 1 cm B) 3 cm C) 1,5 cm D) 2,5 cm
2. Ikki shahar orasidagi masofa 1:4000000 masshtabli xaritada 7 santimetr ga teng. Bu masofa necha kilometr?
A) 28 B) 280 C) 2800 D) 2,8
3. Ikki shahar orasidagi masofa 240 km. 1:6000000 masshtabli xaritada bu masofa necha santimetr ga teng bo‘ladi?
A) 4 B) 40 C) 400 D) 0,4
4. Ovqat qilish uchun har kuni 0,5 litrdan yog‘ kerak. 3 litr yog‘ bilan necha kun ovqat qilish mumkin?
A) 3 B) 4 C) 5 D) 6
5. 2 kg shakar 10400 so‘m bo‘lsa, 3 kg 500 g shakar necha so‘m bo‘ladi?
A) 13000 B) 18200 C) 17570 D) 19950
6. 4 ta ishchi ma’lum ishni 30 soatda bajaradi. Shu ishni (ish unumdorligi bir xil bo‘lgan) nechta ishchi 12 soatda bajaradi?
A) 2 B) 8 C) 10 D) 12
7. Mehnat unumdorligi bir xil bo‘lgan 8 kishi ma’lum hajmdagi ishni 15 kunda tugatishdi. 12 kishi o‘shancha mehnat unumdorligi bilan ishlasa, o‘sha hajmdagi ishni necha kunda tugatishi mumkin?
A) 9 B) 8 C) 10 D) 12
8. 3 ta mushuk 6 ta sichqonni 10 soatda yesa, 2 ta mushuk 10 ta sichqonni necha soatda yeydi?
A) 18 B) 20 C) 24 D) 25
9. 10000 so‘m pul 2 oyda 5000 so‘m foyda keltirsa, 15000 so‘m pul 3 oyda qancha foyda keltiradi?
A) 11500 B) 12500 C) 11000 D) 11250
10. 20 metrlik yog‘ochni 5 metrlik bo‘laklarga bo‘lish uchun 12 minut ketsa, 4 metrlik bo‘laklarga bo‘lish uchun necha minut ketadi?
A) 16 B) 15 C) 14 D) 13

11. Binoning 6-qavatigacha bo‘lgan zinaning uzunligi 3-qavatgacha bo‘lgan zina uzunligidan necha marta uzun? (Qavatlar orasidagi zinalar soni bir xil deb hisoblansin)
A) 4 B) 2,5 C) 3,5 D) 2
12. $8\text{ m}^2\ 3\text{ dm}^2\ 6\text{ cm}^2$ necha cm^2 ?
A) 8306 B) 80306 C) 83006 D) 80036
13. $8\text{ m}^2\ 75\text{ dm}^2 = \boxed{?}\text{ dm}^2$
A) 155 B) 875 C) 600 D) 8075
14. 6 avtobus va 10 tramvay 560 yo‘lovchi tashiy oladi. 7 avtobus va 5 tramvay 440 yo‘lovchi tashiy oladi. Avtobusning yo‘lovchilar sig‘imi trammvayning sig‘imidan nechta yo‘lovchiga farq qiladi?
A) 8 B) 12 C) 14 D) 2
15. Katakda quylar va tovuqlar bor. Ularning boshlar soni 41 ta, oyoqlari soni esa 132 ta. Katakda nechta quy bor?
A) 23 B) 22 C) 25 D) 16
16. Bir sutkada minut mili soat milini necha marta quvib o‘tadi ?
A) 22 B) 23 C) 24 D) 21
17. Bir soatda usta 15 ta, shogirdi esa 12 ta detal tayyorlaydi. Ular birgalikda 3 soatda nechta detal tayyorlaydi?
A) 27 B) 54 C) 81 D) 108
18. Uchta yashikda olma bor. Agar 1-yashikda qolgan ikkitasi qo‘shilganidan 6 ta kam, 2-yashikda esa 1 va 3-yashiklardagi jami olmalardan 10 ta kam olma bo‘lsa, 3-yashikda nechta olma bor?
A) 10 B) 8 C) 6 D) aniqlab bo‘lmaydi.
19. G‘isht og‘irligi 1,4 kg va yana yarim g‘ishtga teng. G‘isht og‘irligi necha kg?
A) 2,1 B) 2,4 C) 2,8 D) 1,8
20. Dushanba soat 15:00 dan necha soat o‘tgach ertasiga soat 11:00 bo‘ladi?
A) 7 B) 8 C) 19 D) 20
21. 1-fevral payshanba kuni bo‘lsa, shu yili 25-fevral haftaning qaysi kuni bo‘ladi?
A) yakshanba B) dushanba C) seshanba D) chorshanba


22. Onasi 45 yoshda, qizi 17 yoshda. Necha yil oldin ona qizidan 5 marta katta bo‘lgan?
A) 7 B) 8 C) 9 D) 10
23. Otasi 42 yoshda o‘g‘li 18 yoshda . Necha yildan so‘ng ota o‘g‘lidan ikki marta katta bo‘ladi ?
A) 8 B) 7 C) 6 D) 12
24. 3 aka-ukada 36 ta rangli qalam bor. O‘rtanchada akasidan 4 ta kam, ukasidan 4 ta ko‘p rangli qalam bo‘lsa, katta akada nechta rangli qalam bor?
A) 14 B) 15 C) 16 D) 18
25. Fermadagi quyonlarning 7 tasi karamni, 6 tasi sabzini, 5 tasi lavlagini xush ko‘radi. 4 tasi karam va sabzini, 3 tasi karam va lavlagini, 2 tasi sabzi va lavlagini, 1 tasi esa karamniyam, sabziniyam, lavlaginiyam hush ko‘rsa, fermada jami nechta quyon bor?
A) 21 B) 18 C) 14 D) 10
26. Birinchi ishchi necha kun ishlagan bo‘lsa, kuniga shunchadan haq oldi. Ikkinchi ishchi 1 kun kam ishlab, kuniga birinchi ishchidan 1 so‘m ortiq haq oldi. Qaysi ishchi ko‘proq haq olgan?
A) 1 B) 2 C) teng D) aniqlab bo‘lmaydi.
27. Bir idishda 10 litr suv, ikkinchisida 10 litr sut bor. Suvli idishdan 1 litr olib, sutli idishga solindi va aralashtirildi. So‘ngra sutli idishdan 1 litr olib suvli idishga solinib, aralashtirilgach, suvli idishda sut ko‘pmi yoki sutli idishda suv ko‘pmi?
A) sutli idishda suv ko‘p B) suvli idishda sut ko‘p
C) o‘zaro teng D) aniqlab bo‘lmaydi
28. Bir sonning 25% i 450 ga teng. Shu snning 87% i nechaga teng?
A) 1566 B) 1655 C) 1687 D) 1512
29. Jadvaldan foydalanib, piyozning massasi mahsulotlar jami massasining necha foizini tashkil etishini aniqlang.
- | | |
|-----------|-------|
| Kartoshka | 75 kg |
| Sabzi | 45 kg |
| Piyoz | 30 kg |
- A) 10 B) 20 C) 30 D) 40
30. 2750000 so‘mning 20 % i necha so‘m bo‘ladi?
A) 550000 B) 55000 C) 330000 D) 3300000

31. 20 foizi 180000 ga teng bo‘lgan sonni toping.
A) 360000 B) 3600000 C) 90000 D) 900000
32. 250 ning 20% i dan 60 ning 80% ini ayiring.
A) 3 B) 2 C) 1 D) 0
33. Qishga tayyorlab qo‘yilgan 500 tonna ko‘mirning 30 %i dekabr oyida, 35 %i esa yanvar oyida ishlatilgan. Yanvar oyida dekabr oyidagiga qaraganda necha tonna ko‘p ko‘mir ishlatilgan?
A) 5 B) 25 C) 105 D) 50
34. Erta bahorda o‘quvchilar maktab bog‘iga 2400 tup daraxt ko‘chati o‘tqazishlari kerak edi. Ular esa rejani 23% ga oshirib bajardilar. Maktab bog‘iga necha tup daraxt ko‘chati o‘tqazilgan?
A) 2000 B) 2540 C) 3154 D) 2952
35. Maktabda 50 ta o‘quvchi a‘lo bahoga o‘qiydi. Bu maktabdagi jami o‘quvchilarning 5 % ini tashkil qiladi. Maktabda jami nechta o‘quvchi o‘qiydi?
A) 1000 B) 500 C) 2500 D) 1500
36. x y ning 125% ini tashkil etadi, y esa z dan 300% ga ko‘p. x z dan necha foiz ko‘p?
A) 20 B) 200 C) 500 D) 400
37. 600 ni 20% ga oshirib, so‘ngra 20% ga kamaytirsang qaysi son hosil bo‘ladi?
A) 600 B) 576 C) 584 D) 580
38. 40 soni 50 sonidan necha protsent kam?
A) 20 % B) 16% C) 25 % D) 10%
39. 40 sonidan 50 soni necha protsent ortiq?
A) 20 % B) 25 % C) 16 % D) 24%
40. Mahsulot avval 25% ga, so‘ngra 40% ga qimmatlashdi. Uni dastlabki narxiga tushurish uchun necha foizga arzonlashtirish kerak?
A) 65 % B) $47\frac{1}{3}$ % C) $42\frac{6}{7}$ % D) $38\frac{5}{13}$ %
41. Ishchining maoshi ketma-ket 3 marta bir xil foizga oshirilgach, dastlabkisidan 72,8% ga oshgan bo‘lsa, maosh har gal necha foizga oshgan ?
A) 12% B) 20% C) 18% D) 15%

42. Mahsulot narxi ketma-ket 3 marta bir xil foizga arzonlashtirilgach, dastlabkisidan 65,7% ga kamaygan bo'lsa, mahsulot har gal necha foizga arzonlashtirilgan?
A) 20% B) 30% C) 40% D) 18%
43. Tovar 5192 so'mga sotilsa, 10% foyda keltiradi. Uning tannarxi necha so'm?
A) 4720 B) 472 C) 5664 D) 566,4
44. Sotuvchi kitobning sotuvdagi narxini 10% ga arzonlashtirib sotib 8% foyda ko'rdi. Arzonlashtirmay sotganida necha foiz foyda ko'rar edi?
A) 12% B) 20% C) 25% D) 18%
45. Firma mahsulotni 42000 so'mga sotib 16% ga zarar ko'rdi. Firma shu mahsulotni aslida necha so'mdan sotishi kerak edi?
A) 44000 B) 48000 C) 50000 D) 60000
46. Mehnat unumdorligi 24% ga oshgach, korxonada kuniga 868 ta buyum ishlab chiqaradigan bo'ldi. Korxonada oldin kuniga qancha mahsulot ishlab chiqargan?
A) 720 B) 750 C) 810 D) 700
47. Agar ikki sondan biri 20% ga oshirilib, ikkinchisi 25% ga kamaytirilsa, ko'paytma qanday o'zgaradi?
A) 10% kamayadi B) 10% oshadi C) 5% kamayadi D) 12% kamayadi
48. Kitob 2000 so'm turadi. Uning narxi 2 marta 5% dan arzonlashtirildi. Kitobning narxi necha so'm bo'ldi?
A) 1800 B) 1802 C) 1803 D) 1805
49. Mahsulotni sotishdan olinadigan foyda uning sotuvdagi bahosining 25% ini tashkil etadi. Bu foyda mahsulot tannarxining necha foizini tashkil etadi?
A) 30% B) 33% C) $33\frac{1}{3}\%$ D) $33\frac{2}{3}\%$
50. Bir ishchi 14 soat ishlab butun ishning 42% ni, ikkinchi ishchi 15 soat ishlab butun ishning 30% ni, uchinchi ishchi 18 soat ishlab butun ishning 45% ni bajara oladi. Shu ishni uchalasi birgalikda necha soatda tugata oladi?
A) $12\frac{1}{4}$ soat B) $13\frac{3}{5}$ soat C) $12\frac{1}{2}$ soat D) $13\frac{1}{3}$ soat
51. Maktab o'quvchilarining 56%i o'g'il bolalar. O'g'il bolalar qizlardan 84 taga ko'p bo'lsa, qizlarning jami soni nechta?
A) 308 B) 284 C) 336 D) 380

52. Ikki qopda 120 kg un bor. Agar birinchi qopdan 25% un olinib, ikkinchi qopga o'tkazilsa, qoplardagi unlar miqdori tenglashadi. Ikkinchi qopdan necha foiz un olinib, birinchi qopga qo'shilsa, 1-qopdagi un 2-qopdagi undan 5 marta ko'p bo'ladi?
A) 25% B) 40% C) 50% D) 60%
53. Sonning 40% i 25% idan 42 ga ortiq bo'lsa, 60% i 35% i dan nechaga ortiq?
A) 50 B) 60 C) 70 D) 80
54. Poyezddagi yo'lovchilarning 40% i erkaklar, qolganining 60% i ayollar. Poyezddagi bolalar 216 ta bo'lsa, jami yo'lovchilar nechta?
A) 720 B) 810 C) 1000 D) 900
55. Bir sotuvchi 100 dona tuxumni 400 so'mdan olib, 25% ustiga qo'yib sotmoqchi edi. Faqat tuxumlarning bir nechtasi sinib qoldi. Shunda u butunlarining ustiga 30% qo'yib singanlarining ustiga esa 10% qo'yib ko'zlagan foydasiga erishdi. Sotuvchining nechta tuxumi singan?
A) 12 B) 18 C) 20 D) 25
56. Bir metri 8000 so'm bo'lgan gazmol yuvilganda 20% ga qisqaradi. Zarar bo'lmasligi uchun yuvilgan gazmolning bir metri eng kamida qanchadan sotilishi kerak?
A) 8600 B) 9200 C) 10000 D) 12000
57. Bir molning 40% i 20% foyda bilan, qolganining 40% i 30% foyda bilan, qolganining 50% i 40% foyda bilan sotilgan bo'lsa, ortib qolgan mol necha foiz foyda bilan sotilsa, o'rtacha foyda 26% bo'ladi?
A) 15% B) 20% C) 24% D) 30%
58. Bir sotuvchi qo'lidagi molning 60%ini 5% foyda bilan sotganida, p so'm foyda qiladi. Qolgan molini 15% foyda bilan sotganida molning hammasidan necha so'm foyda ko'radi?
A) $2p$ B) $1,5p$ C) $3p$ D) $2,5p$
59. 112 soni shunday 3 bo'lakka bo'linganki, 2-bo'lak 1-bo'lakning 10% ini, 3-bo'lak 2-sining 20% ini tashkil etadi. O'rta bo'lakni toping.
A) $112/13$ B) 10 C) 20 D) 5
60. Qotishma mis va oltindan iborat. Qotishmaning $8/15$ qismi misdan iborat. Agar qotishmada oltin 14 kg bo'lsa, mis miqdori qancha kg?
A) 15 B) 16 C) 17 D) 12

61. 20°C li 7 litr suvga 80°C li 3 litr aralashdirilsa, aralashma suv necha gradusli bo‘ladi?
A) 100°C B) 60°C C) 48°C D) 38°C
62. 20 kg eritmaning 10%i tuzdan iborat. Tuz miqdori 8% bo‘lishi uchun unga necha kg chuchuk suv qo‘shish kerak?
A) 3 B) 4 C) 5 D) 6
63. 36 litr eritmaning 5% i tuzdan iborat. Tuz miqdori 12% bo‘lishi uchun necha litr suvni bug‘lantirish kerak?
A) 15 B) 18 C) 20 D) 21
64. 22 kg yangi uzilgan qo‘ziqorin quritilganda 2,5 kg qoqi hosil bo‘ladi. Agar qoqi tarkibida 12% suv bo‘lsa, yangi uzilgan qo‘ziqorinda necha foiz suv bo‘ladi?
A) 70% B) 80% C) 90% D) 100%
65. Yig‘ilgan mevaning 99%i suvdan iborat. Ma’lum muddatdan so‘ng suv miqdori 98% ga tushdi. Endi meva og‘irligi necha foizga kamayadi?
A) 1% B) 50% C) 44% D) $1\frac{1}{9}\%$
66. Yig‘ilgan 600 kg mevaning 70%i suvdan iborat. Bir necha kundan so‘ng bu meva og‘irligi 300 kg ga tushdi. Endi uning tarkibida necha foiz suv bor?
A) 35% B) 40% C) 42% D) 48%
67. Yig‘ilgan 750 kg mevaning 60%i suvdan iborat. Ma’lum muddat o‘tgach bu mevadagi suv miqdori 40% ga tushdi. Endi bu meva og‘irligi necha kg chiqadi?
A) 450 B) 480 C) 500 D) 540
68. Yig‘ilgan 1 t mevaning 82% i suvdan iborat. Ma’lum vaqtdan keyin bu mevadagi suvning miqdori 70%ga tushdi. Endi bu mevaning og‘irligi necha kg chiqadi?
A) 810 B) 820 C) 600 D) 780
69. 800 kg rudada temir bor. Undan 20% temiri bo‘lgan qotishma ajratib olinganda, qolgan ruda 600 kg bo‘ldi. Qotishmada qolgan rudada temir konsentratsiyasi dastlabkisidan 15% ga oshdi. Rudada necha kg temir qolgan?
A) 480 kg B) 390 kg C) 520 kg D) 360 kg
70. 900 kg rudada temir bor. Undan 40% temiri bo‘lgan qotishma ajratib olinganda, qolgani 500 kg bo‘ldi. Qotishmada temir konsentratsiyasi 10% ga kamaydi. Rudada necha kg temir qolgan?
A) 87,5 kg B) 150 kg C) 187,5 kg D) 64,5 kg

71. Meshdagi suv Salimga 10 kunga, Qosimga 12 kunga, Sobirga 15 kunga yetadi. Ikki kundan so‘ng Salim va Sobir ketib qoldi. Qolgan suv Qosimga necha kunga yetadi?
A) 4 B) 5 C) 6 D) 7
72. 1-quvur hovuzni 5 soatda, 2-quvur hovuzni 6 soatda to‘ldiradi. 3-quvur esa to‘la hovuzni 30 soatda bo‘shatadi. Uchala quvur birgalikda ochilsa, bo‘sh hovuz necha soatdan keyin to‘ladi?
A) 2 B) 2,5 C) 3 D) 3,2
73. Kinozaldagi tomoshabinlar ikki eshikdan 6 minutda chiqib keta oladi. Agar birinchi eshik ochilsa, faqat ikkinchi eshikning o‘zidan chiqarilganga qaraganda 5 minut kam vaqt ketadi. Faqat birinchi eshikdan tomoshabinlar necha minutda chiqib keta oladilar?
A) 6 B) 8 C) 10 D) 12
74. Ma‘lum ishni birinchi va ikkinchi ishchi 3 kunda, ikkinchi va uchinchi ishchi 4 kunda, birinchi va uchinchi ishchi 6 kunda bajaradi. Shu ishni birinchi ishchi bir o‘zi necha kunda uddalay oladi?
A) 7 B) 8 C) 9 D) 10
75. Ikki quvur birgalikda bo‘sh hovuzni 6 soatda to‘ldiradi. Agar 1-quvurning o‘zi 2-quvurga qaraganda 5 soat tezroq to‘ldira olsa, 1-quvurning o‘zi bo‘sh hovuzni necha soatda to‘ldira oladi?
A) 8 B) 10 C) 12 D) 15
76. 50 kishilik sayohatchilar guruhida 20 kunga yetadigan oziq-ovqat bor. 16 kundan so‘ng 10 kishi ketib qoldi. Qolgan oziq-ovqat sayohatchilarga necha kunga yetadi?
A) 4 B) 5 C) 6 D) 7
77. 100 kishilik sayohatchilar guruhida 18 kunga yetadigan oziq-ovqat bor. 6 kundan so‘ng 25 kishi ketib qoldi. Qolgan oziq-ovqat sayohatchilarga necha kunga yetadi?
A) 9 B) 12 C) 15 D) 16
78. Ali ishni a kunda, Vali $2a$ kunda, G‘ani $a+1$ kunda va uchchalasi birga $\frac{4a}{9}$ kunda bajarsa, a ning qiymatini toping.
A) 1 B) 2 C) 3 D) 4
79. Bo‘ri 220 m Tulki 380 m Quyon
- 
- Agar bo‘rining tezligi 5 m/s, tulkining tezligi 3 m/s, quyonning tezligi esa 2 m/s bo‘lsa, bo‘ri quyonga yetganda, tulki quyondan qancha masofada qoladi?
A) 100 m B) 150 m C) 200 m D) 180 m

80. Poyezd yo‘lda 16 minut to‘xtab qoldi. Poyezd jadval bo‘yicha yetib kelish uchun manzilga 80 km qolganda tezligini 10 km/soatga oshirdi. Poyezd jadval bo‘yicha yetib kelishi uchun qanday tezlikda yurgan?
A) 50 B) 60 C) 70 D) 48
81. Ikki velosipedchi oralaridagi masofa 28 km bo‘lgan A va B punktlardan bir-biriga tomon yo‘lga chiqdi. 1 soatdan so‘ng uchrashib, shu tezlik bilan yo‘lda davom etishdi. 1-velosipedchi B punktga 2-velosipedchi A punktga yetib kelishidan 35 minut oldinroq yetib keldi. Velosipedchilar tezliklarini toping.
A) 16;12 B) 14;18 C) 12;20 D) 12;18
82. Motorli qayiq A shahardan B shaharga borish uchun daryo oqimi bo‘ylab 8 soat, B dan A ga qaytish uchun esa 12 soat sarfladi. A dan B ga sol necha soatda boradi?
A) 36 B) 40 C) 48 D) 54
83. Harakat boshlangandan 1,8 soat o‘tgach, avtomobil mototsiklni quvib o‘tdi. Agar avtomobil tezligi 84 km/soat va mototsiklning tezligi 59 km/soat bo‘lsa, harakat boshlanishidan oldin ular orasidagi masofa necha kilometr bo‘lgan?
A) 32 B) 40 C) 48 D) 45
84. Ikki velosipedchi uzunligi 2400 metr bo‘lgan aylana bo‘ylab bir yo‘nalishda harakat qilganda 1-velosipedchi 2-velosipedchini har 16 minutda quvib o‘tadi. Qarama-qarshi yo‘nalishda harakat qilganda ular har 5 minutda uchrashadilar. Velosipedchilar tezliklarini toping.
A) 18,9 km/soat; 9,9 km/soat B) 17,2 km/soat ; 6,4 km/soat
C) 21,4 km/soat; 7,2 km/soat D) 19,2 km/soat ; 5,4 km/soat
85. Paroxod yo‘lining 40%ini o‘tganda manzilga 24,6 km qolgani ma’lum bo‘ldi. O‘tilgan yo‘l necha kilometr?
A) 15,8 km B) 17,2 km C) 14,4 km D) 16,4 km
86. Avtomobil borishda o‘rtacha 80 km/soat tezlik bilan, qaytishda esa o‘rtacha 48 km/soat tezlik bilan yurdi. Uning borib qaytishdagi o‘rtacha tezligi qancha?
A) 64 km/soat B) 62 km/soat C) 60 km/soat D) 54 km/soat
87. A va B dan bir vaqtda bir-biriga tomon ikki poyezd yo‘lga chiqdi. 6 soatdan so‘ng ular orasidagi masofa umumiy masofaning $\frac{1}{10}$ qismicha bo‘ldi. Agar A dan chiqqan poyezd 1,5 soat oldin chiqqanida edi, ular yo‘lining o‘rtasida uchrashgan bo‘lishar edilar. Poyezdlar har biri butun yo‘lni necha soatda bosib o‘tadi?
A) 15;16 B) 14;16 C) 15;12 D) 16;12

- 88.** A va B dan bir vaqtda bir-biriga tomon ikki velosipedchi yo‘lga chiqdi. 6 soatdan so‘ng ular orasidagi masofa umumiy masofaning $\frac{1}{8}$ qismicha bo‘ldi. Agar A dan chiqqan velosipedchi 2 soat oldin chiqqanida edi, ular yo‘lning o‘rtasida uchrashgan bo‘lishar edilar. Velosipedchilar har biri butun yo‘lni necha soatda bosib o‘tadi?
- A) 14;18 B)15;16 C) 16;12 D) 18;16

Kalitlar

1.	D	16.	A	31.	D	46.	D	61.	D	76.	B
2.	B	17.	A	32.	B	47.	A	62.	C	77.	D
3.	A	18.	B	33.	B	48.	D	63.	D	78.	C
4.	D	19.	C	34.	D	49.	C	64.	C	79.	D
5.	B	20.	D	35.	A	50.	D	65.	B	80.	B
6.	C	21.	A	36.	D	51.	A	66.	B	81.	A
7.	C	22.	D	37.	B	52.	C	67.	C	82.	C
8.	D	23.	C	38.	A	53.	C	68.	C	83.	D
9.	D	24.	C	39.	B	54.	D	69.	A	84.	A
10.	A	25.	D	40.	C	55.	D	70.	A	85.	D
11.	B	26.	A	41.	B	56.	C	71.	C	86.	C
12.	B	27.	C	42.	B	57.	B	72.	C	87.	C
13.	B	28.	A	43.	A	58.	A	73.	C	88.	C
14.	A	29.	B	44.	B	59.	B	74.	B		
15.	C	30.	A	45.	C	60.	B	75.	B		